

**TURIZIMNI RIVOJLANTIRISHGA OID DOLZARB MASALALAR****Azimjon Axmedov Ilxomovich***Andijon davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi***Sanobar Ikramova Vosiljon qizi***Andijon davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Jahondagi globallashuv sharoitida turizm muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillardan biriga aylandi. Ushbu maqolada turizimning davlatlar taraqqiyotidagi muhim o‘rni va uni rivojlantirishga oid dolzarb masalalar haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, daromad hajmi, sayohat, statistik ma‘lumotlar, ishlab chiqarish va servis aylanmasi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar, Jahon sayohat va turizm kengashi.

Jahondagi globallashuv sharoitida turizm muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillardan biriga aylandi. Iqtisodiyotning ushbu sektorida umumiy daromad hajmi trillionlab dollarni tashkil etmoqda, har yili butun dunyoda bir milliarddan ziyod kishi sayohat qilmoqda. Turizm nafaqat savdo xizmatlarining bir turi sifatida, balki bugun turizm bozorlarining barqaror rivojlanishi yangi ishchi o‘rnlarni yaratishga va unga turdosh bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirishga imkoniyat yaratmoqda. Shu tufayli turizm faoliyatini ravnaq toptirish masalasi 2017– 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida ham o‘z aksini topgani bejiz emas.

Turizm XXI asrda jahon iqtisodiyotiga juda katta ijobiy ta‘sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy soha sifatida kirib keldi. Butunjahon turizm tashkilotining ma‘lumotlari bo‘yicha, dunyoda ishlab chiqarish va servis aylanmasining 10 foizi turizmga to‘g‘ri kelmoqda. Keyingi 20 yil ichida xalqaro turizmning rivojlanishi dunyo bozorida tovar va xizmatlarning kuchli eksport qilinayotganligi bilan e‘tiborlidir. Ya‘ni turistik xizmatlarning eksporti 8 foiziga o‘sib, jahon bo‘yicha umumiyligi xizmatlar savdosining 30-35 foizini tashkil qilmoqda. Butunjahon turizm tashkilotining statistik ma‘lumotiga ko‘ra, 2020-yilga borib xalqaro turistlarning soni 1.6 mld. kishini tashkil qilishi, turizmdan olinadigan daromad 2 trln. AQSH dollari bo‘lishi kutilmoqda. Turistik oqimning barqaror ravishda o‘sishi har yili 3-5 foizgacha ko‘payadi, 3 deb ta‘kidlanadi. O‘zbekistonda ham bu borada mustaqillik yillarida soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilgan bo‘lib, hukumat tomonidan tegishli me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan. Bu yo‘nalishdagi ishlar bugun ham davom etmoqda. Shu tufayli Jahon sayohat va turizm Kengashi (World Travel and Tourism Council-

WTTC)ning ma'lumotlari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi tezkorlik bilan rivojlanayotgan davlatlar 10 taligi ro'yxatiga kiritilgan. Istiqbolni belgilash davrida O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolarga turistik xizmat ko'rsatishning o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. O'zbekistonda kiruvchi va chiquvchi turizm bozorida turistik biznes nafaqat turizm industriyasini, balki milliy iqtisodiyotning turizmga turdosh bo'lgan bir qator boshqa sohalarning rivojlanishini ta'minlaydi. Shu tufayli, yurtimizga sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun turizmni nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish va bilish talab etilmoqda. Turizm nafaqat o'tmishni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlar, ularning urfodatlari, an'analari, milliy meroslari bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shu bilan birgalikda, katta biznes manbasi bo'lib hisoblanadi. Mazkur faoliyatni yo'nga qo'yish esa mutaxassislarga bog'liq bo'lganligi tufayli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizm sohasining markazlashgan ma'muriy boshqaruv tizimi 1971–1991-yillar davriga to'g'ri keldi. Bu davrda salbiy oqibatlar ham ko'zga tashlana boshladи. Qurilmay qolgan turistik-rekreatsion maqsadidagi obyektlar sonining ko'payishi, mavjudlarida esa mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlarning sifati bo'yicha ko'plab e'tirozlar paydo bo'la boshladи. Ijtimoiy taddiqotlarga ko'ra, mehmonxonalar, turbazalar, dam olish uylari hamda pansionatlar tomonidan taklif qilinadigan 50 foizgacha bo'lgan barcha xizmatlar fuqarolarning noroziligini keltirib chiqargan. Joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari bilan birga, hordiq chiqarish va tibbiy xizmat ko'rsatish talab darajasida bo'lmagan. Turistik xizmat turlari va hajmi sezilarsiz va sifatsiz bo'lgan. Bugungi kunda O'zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanishini shartli ravishda beshta bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, 1991- yildan keyin milliy turistik xizmatlar bozori shakllana boshladи. Aynan shu davrda respublika o'zining iqtisodiy mustaqilligini hamda mustaqil ravishda tashqi dunyo bozorlariga chiqishini e'lon qildi. Bu davrda qabul qilingan tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonun turistik xizmatlarni sotuvchi korxonalarga yangi imkoniyat 10 yaratdi. Natijada, tarmoqda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turistik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo'shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog'ining mintaqaviy bo'linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiyashtirilgan turistik korxonalarni litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berildi. Amalga oshirilgan o'zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi.

1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va

respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni Buyuk Ipak yo‘lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda turizm sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Natijada Buyuk Ipak yo‘lidagi shaharlar va turistik manzillar ro‘yxatga olindi, Imom alBuxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G‘ijduvoniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Motrudiy, Mahmudi A‘zam, Hakim at-Termizi, Hazrati Imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin Marg‘iloniy, Buxorodagi Chor Bakr kabi allomalarimizning maqbaralari ta‘mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi. 1998-yildan boshlab, Toshkent shahrida muntazam ravishda —Buyuk Ipak yo‘lida turizml nomli Xalqaro turizm yarmarkasi tashkil etila boshlandi, mehmonxonalardagi xalqaro talablarga javob beruvchi o‘rinlar soni 4.8 barobarga ko‘paytirildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning uchinchi bosqichida, 1999- yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi, shu yilning 20-avgustida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Turizm to‘g‘risida» gi Qonun qabul qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo‘lga qo‘yildi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo‘yildi. Ko‘pchilik turistik obyektlar o‘zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladи, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, ular o‘rniga samarali ishlovchi yangi xususiy korxonalar tashkil etildi. 2000-yildan boshlab, respublikamiz turizm sohasi yuqori sur‘atlar bilan rivojlnana boshlandi.

Turizm sohasidan olinayotgan daromadlar yiliga 20 va undan ortiq foizlarda o‘sma boshlandi. 2001- yilning oxirida Afg‘onistondagi tolibonlarga qarshi harakatlarning boshlanishi o‘lkamizga kelayotgan turistlar oqimini ikki yil davomida ancha kamaytirib yuborganidan so‘ng, 2003-yilning ikkinchi yarmiga kelib, o‘lkamiz turizmi yana o‘zini o‘nglab oldi. Sharqiyy Osiyoda o‘tgan yillarda tarqalgan odatdan tashqari, pnevmoniya (SARS) va parranda grippi kabi kasalliklar O‘zbekiston turizmiga 2001- yil 11-sentabr voqealaridek kuchli ta‘sir ko‘rsata olmadi. Turizm sohasidagi islohotlarning to‘rtinchı bosqichi 2000— yildan boshlangan bo‘lib, 2017-yilgacha davom etdi. Bu davrda xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasiga va tashkil etiladigan boshqa turistik assotsiatsiyalarga asos qo‘yildi (Gid-tarjimonlar assotsiatsiyasi, Mehmonxona egalari assotsiatsiyasi, Transportchilar assotsiatsiyasi) va «O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasining bir qator vakolatlarini o‘tkazish ustida izlanishlar olib borildi. Bu o‘lkamiz turizm xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi korxonalarining yanada tezroq sur‘atlarda rivojlantirishga yordam berdi.

Hozirgi kunga kelib, O‘zbekiston zamонавиy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zaruriy manbalarga ega bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan.

Vatanimiz – qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Mamlakatni modernizatsiyalash bosqichida turizm va mehmondo'stlik industriyasi sohasidagi yechimini kutib turgan masalalar qatorida, yuqorida ta'kidlanganidek turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo'lib turibdi.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan turizm sohasiga milliy iqtisodiyotning strategik sektor maqomini berilishi, uning istiqbolda rivojlanishiga katta zamin yaratmoqda. Shu tufayli, yurtimizga sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun zamonaviy kadrlar turizm sohasini nazariy va amaliy jihatdan mukammal o'rganishi va o'zlashtirishini talab qilmoqda. Turizm sohasi uchun respublikamizda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand, Urganch, Buxoro, Qarshi, Termiz davlat universitetlari hamda Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti va qator turizm kasb-hunar kollejlari malakali kadrlar tayyorlashda o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.S. Tuxliyev, G 'X. Qudratov, M.Q. P ardayev. "Turizmni rejalashtirish" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010-y.
2. Xalqaro turizmnинг Ispaniya iqtisodiyotidagi ahamiyati. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001. № 7 -8.
3. Xalqaro turizm iqtisodiy rivojlanish vositalaridan biri. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001. № 11-12.
4. Алиева М.Т. Развития индустрии туризма. «Международные Плехановские чтения», 19 апреля РЭА. им. Г. В. Плеханова, 2006.
5. Алиева М .Т. Развитие инфраструктуры туризма в Узбекистане. Материалы VII - Международной научно - практической конференции студентов и аспирантов. Донецк, 2004.
6. Ilhomovich, A. A., & Xusnida, E. (2023). ACCULTURATION AND ENCULTURATION AS TERMS IN DEVELOPMENT OF CROSS-CULTURAL AWARENESS AND INTERCULTURAL COMPETENCE. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1214-1218.
7. Ilhomovich, A. A., & Gulchiroy, X. (2023). ENGLISH AS A MOTHER TONGUE. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1257-1259.
8. Ilhomovich, A. A., & Madumarova, S. (2023). ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 997-999.
9. Umidjon, M. (2022). MATERIAL AND SPIRITUAL HERITAGE OF ANCESTORS SAMPLES IN STORAGE. Confrencea, 1(1).
10. Kozimjon o'g'li, M. U. (2022). TURIZMNING RIVOJLANISH TARIXI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(19), 625-627